



IMOM AL-BUXORIYNING “TARIX” ASARI
Urganch innovatsion university
“Pedagogika va boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrası
stajyor-o‘qituvchisi Axmedova Maysara Baxromovna
axmedovamaysara904@gmail.com

Annatatsiya: Ushbu maqolada hadis ilmining rivojlanishida asosiy mana sifatida qo‘llaniluvchi Imom Buxoriyning tarixga oid “At-tarixu-s-sag‘ir”, “At-tarixu-l-avsat”, “At-tarixu-l-kabir” asarlari borasidagi fikrlar o‘rin olgan.

Kalit so‘zlar: muhaddis, imom, tarix, hadis, risola, rivoyat, sahoba, roviy.

Annotation: In this article, the opinions of Imam Bukhari’s historical works “At-tarikh-s-saghir”, “At-tarikh-l-awsat”, “At-tarikh-l-kabir”, which are used as the main mana in the development of hadith science, are presented.

Keywords: muhaddis, imam, history, hadith, treatise, narration, companion, narrator.

Аннотация: В данной статье приводятся мнения об исторических трудах Имама Бухари “Ат-тарих-с-сагир”, “Ат-тарих-л-авсат”, “Ат-тарих-ль-кабир”, которые используются в качестве основной маны в развитие хадисоведения.

Ключевые слова: мухаддис, имам, история, хадис, трактат, повествование, спутник, рассказчик.

Ma’lumki, Imom Buxoriy qirq yil mobaynida ilmiy safarda bo‘lib, ijodiy faoliyati davomida yigirmadan ziyod faoliyati davomida yigirmadan ziyod asar yozgan. Uning ilmiy merosi hajmi, zamonasining ijtimoiy-ma’naviy ilimlarni to‘la-to‘kis qamrab olgani bilan kishini hayratga soladi. Allomaning ilmiy maqsadda bosib o‘tgan bir martalik yo‘li 13 900 kilometrni tashkil qiladi. Muhammad ibn Ismoil Buxoriy juda yosh paytidayoq kitob yozishni boshlagan. Xatib Bag‘dodiy uning o‘zidan rivoyat qiladi: “O‘n sakkiz yoshga yetganimda sahoba va tobeinlarning masalalarini o‘rgana boshladim. Bu Ubaydulla ibn Musoning davrida bo‘lgan edi. O‘sha paytda “Tarix” kitobimni Rasulloh (s.a.v) qabrlari yonida oydin kechalari tasnif etdim” deya ma’lumotlarni yozib qoldirgan.

Imom Buxoriyning ilm olish uchun umrning katta qismini safarda o‘tkazgan va ko‘plab ustozlardan ta’lim olgan. Bu haqida Muhammad ibn Abu Hotim o‘z kundaliklarida



keltirib o‘tgan. Imom Buxoriyni boshqa muhaddislar bilan taqqoslaganda, uning quyidagi ustunliklari ko‘zga tashlanadi:

- Imom Buxoriy hadis ilmi gullab yashnagan davrda yashab o‘tgan va oltita sahif muhaddisning eng yoshi ulug‘i bo‘lgan.
- Hadis tekshirishda juda tanqidiy yondashgan, har bir dalilni sichkovlik bilan tekshirgan va ushbu ulug‘ vazifaga o‘zini butunlay bag‘ishlangan;
- Buxoriy tabiatan sohibi, tug‘ma iste’dod va kuchli xotira egasi bo‘lgan. Uning bu xislatlari ko‘plab manbalarda o‘z isbotiga ega;
- Imom Buxoriy hadislar to‘plamidagi har bir bobning Qur’oni karim matni bilan uzviyligini ta’minlagan. Bu bilan Islomning ushbu ikki manbasini uyg‘unlashtirgan va hadislar vositasid Qur’onni tushunish va anglab olishni osonlashtirgan;
- Buxoriy hadislar to‘plamini yaratishda usuli fiqh me’yorlariga rioya etishga harakat qilgan. Boshqacha aytganda, Imom Buxoriy hadislariga shunday tartib berganki, natijada birlamchi manbadan hukm hosil qilish hadisshunoslar uchun juda qulaylik yaratgan.

Imom Buxoriyning hayoti va faoliyatiga bevosita bag‘ishlangan monografik asarlar nisbatan kam uchraydi. Chunki, buyuk alloma haqida asar yozishga jur’at etadigan qalam sohiblari barcha davrlarda ham kam bo‘lgan. Oxirgi 15 yillik davrni olsak, Imom Buxoriy haqida ingliz tilida yozilgan monografik asarlar sirasiga asli pokistonlik bo‘lgan doktor Hasan Abdul Jabborning 2007-yilda Oksfordda nashr qilingan “Buxoriy” asarini kiritish mumkin. Unda Imom Buxoriyning hayoti va faoliyatiga oid mumtoz manbalarga havolalar ham ketirilganligi bilan o‘ziga xos. Yana bir manba sifatida Imom Buxoriy “Sahih”ining ingliz tilidagi 9, 3 va 2 tomlik tarjima nashrlarini keltirish mumkin. Ularning muqaddimasida buyuk muhaddis haqida atroflicha ma’lumot keltirilgan. “Tahzibul kamol” va boshqa kitoblarda keltirilishicha, mashhur olim Is’hoq ibn Rohavayh Imom Buxoriyning “Tarix” kitobini Xuroson amiri Abdulloh ibn Tohirning oldiga olib kirib: “Ey amir! Sizga sehrni ko‘sataymi?! degan. Abdulloh ibn Tohir kitobni bir varaqlab ko‘rgandan keyin hayratini yashirmasdan: “Buning qanday tasnif qilinganiga fahmim yetmayapti”, degan. Muhaddislar orasida o‘zining salobati bilan ajaralib turuvchi Imom



al-Buxoriyning tarixga bag'ishlangan kichik, o'rta va katta tarix asarlari ham mavjud.

Bular:

1. "At-tarixu-s-sag'ir" (kichik tarix);
2. "At-tarixu-l-avsat" (o'rta tarix);
3. "At-tarixu-l-kabir" (katta tarix).

Buxoriy bu kitobni muhaddislar tabaqalari uslubida yozgan va unga ishonchli va ishonchsiz hadis roviylarini kiritgan.

1. "Katta tarix" asari Madinada yozilgan. U haqida muallif shunday deydi: "tarixda men qissasini bilmagan ism juda kam. Ammo kitobning kattalashib ketishini xohlamadim". Asarda sahobalardan to Imom Buxoriyning davriga qadar hadis rivoyat qilgan hayoti keltirilgan.

2. "O'rta tarix" asari yil sanalari bo'yicha tartiblangan bo'lib, asarning bir qismi bizgacha qo'lyozma shaklda yetib kelgan. Kitobning bizga ma'lum bir nusxasi Germaniyada yana biri Saudiya Arabistonida saqlanadi.

3. "Kichik tarix" asari ham aynan sanalar bo'yicha tartiblangan. Ilk bor 1325/1907 yil Hindistonda muallifning "Kitob az-zu'afo as-sag'ir" kitobi va Imom Nasoiyning shu nomli asari bilan birga bosilgan. Yusuf Ilyon Serkisning "Mu'jum" nomli kitobida mazkur nashrning oxirida "Asmo' ar-rijol" nomli risola ham ilova qilingan, deyiladi [1.400 b].

Ular ichida "Kichik tarix" asari hadis rivoyat qilgan mashhur sahobalar va uning izdoshlari haqida yozilgan ilk kitoblardan biri hisoblanadi. Kitobning dastlabki nusxasini alloma 18 yoshida yozib tugatgan va uni butun umri davomida to'ldirib borgan. Ushbu tarixga bag'ishlangan asarlari haqida o'zining zamonadoshlari asarni "insonni sehlalab qo'yuvchi asar", "aql bovar qilmas kitob" deb e'tirof etganlar. Asar 42 bobdan iborat bo'lib, 2997 nafar hadis rivoyat qiluvchilar haqida ma'lumot aks ettirilgan. Unda nafaqat ma'lumot berish bilan cheklanib qolmasdan, balki unda 305 ta izoh va sharx, 145 ta tushunish yozilgan va shuningdek 150 ga yaqin geografik joy nomlari berilgan. Kitob hadis ilmi bilan shug'ullanuvchi tadqiqotchilar uchun mo'ljallangan asosiy darslik bo'lishi bilan birgalikda bu boradagi tarixi ilmiga kirish uchun ham qo'llanma sifatida qaraladi. Asarning hozirgi kundagi tillarga tarjima qilish ishlari bo'yicha Misr, Turkiya va



Rossiyadagi taniqli islomshunos olimlar bilan muntazam ilmiy maslahatlashuv asosida amalga oshirilgan. Kitob Xalqaro islom akademiyasi, Islom sivilizatsiyasi markazi va Din ishlari bo'yicha qo'mita ekspertizadan o'tkazilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administrasiya huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi tomonidan "At-tarixus-sag'ir" asariga bag'ishlangan brifing o'tkazildi. Ushbu brifingda uning dunyo tillariga tarjimai borasidagi eng dolzarb bo'lgan masalalar ham ko'rib chiqildi. Imom Buxoriyning "Sahihul Buxoriy" kitobini yozililishida ham mazkur asardan keng foydalanilgan. "Sahihul Buxoriy"ning tushunarsiz joylarini tushuntishda, shifrlarini ochishda va ishoralarni aniqlab berishda bu kitobning ahamiyati beqiyos [2.738b].

Buxoriy "Tarixul kabir" asarini hijriy 212 yilda yoza boshlagan. Asar Imom Buxoriyning zamonidayoq keng tarqalgan. Asarning yozilishi borasidagi tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, ushbu asarni Buxoriy "Tarix" deb nomlagan. Keyinchalik uning murakkabligi va insonlarning tushunishi uchun qayta to'ldirilgan nashr holida bir necha bor chop etilgan. Doktor Odil Abdushakur Zarqiy "Tarixul kabir" kitobining 2 ta nashri keng tarqalgan deb aytadi. "Tarixul-kabir" kitobidan foydalanilgan kishilardan yana biri Imom At-Termiziydir. U kishi o'zining "Al-ilal as-sog'ir" nomli kitobida aytilgan va fikr keltirilgan illatlar, hadislar, insonlar haqidagi akasariyat ma'lumotlar ham aynan Buxoriyning "Tarixul-kabir" kitobidan oldim deya ushu asarda keltirib o'tgan. Ushbu asarga bag'ishlab 45 dan ortiq risola va kitoblar yozilgan. Birgina kitobning atrofida shu qadar ko'p risola va kitoblarning yozilishi, bizlarga kitobning ahamiyat naqadar buyuk ekanligini tasdiqlovchi dalildir. Allomaning ilmiy merosini keng targ'ib qilish va o'rganish maqsadida bu sohada ilmiy faoliyatini olib borayotgan yosh izlanuvchilar faoliyatini rag'batlantirish maqsadida Prezidentimiz farmoni bilan 2022-yil 15-avgust sanasida "Oliy darajali Imom Buxoriy" hamda "Imom Buxoriy" ordeni tasis etildi [3]. Hozirgi kunda "At-Tarix al-kabir" asarning qo'lyozmasi "Dorul kutubil misiya" da 10340 raqami bilan saqlanib kelinmoqda. Birinchi bo'lib, Hindistonning Haydarobod shahridagi "Maoriful Usmoniya" nashriyoti tomonidan 1360 va 1941 yillarda nashr etilgan. Joriy yilning 27-mart kuni Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-



tadqiqot markazida buyuk muhaddis olim, hadis ilmining sultoni Imom Buxoriyning sag'ir" asari taqdimoti bo'lib o'tdi. Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasining ziyorat turizmi sho'basi bosh mutaxassisi Saidkomil Xolxo'jayevning so'zlariga ko'ra, prezident Sukarno yurtimizga safari so'ngida o'zbek xalqini "Jauh di mata, dekat di hati", ya'ni "Ko'zga uzoq, qalbga yaqin" ma'nosidagi indonez maqoli orqali ta'riflangan, bugungi kunda esa, ikki mamlakat o'rtasidagi vizasiz tizim hamda Toshkent-Jakarta yo'nalishida to'g'ridan-to'g'ri aviaqatnovning yo'lga qo'yilishi orqali munosabatlar yanada mustahkamlanganini ta'kidlagan. Bugungi kunda indoneziyaliklar, albatta, Indoniziya davlatchiligining asoschisi bo'lgan janob Sukarno izidan borib, u boshlab bergan sayohat yo'nalishi orqali O'zbekistonni qaytadan kashf qilishga ishtiyoqmanddir", -deydi konferensiya davomida Inonesia Halal Lifestyle Center tashkiloti raisi janob Sapta Nirvandar.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ushbu asar nafaqat hadis tarixini balki, majoziy ma'noda insonlar haqida ham ma'lumot beruvchi ensiklopedik asardir. U moziy qari sayohat qilish imokonini beradi. Undagi har bir tarixiy shaxs haqida uning fazilatlar haqida ham atroflicha ma'lumotlarni ham ko'rishimiz mumkin. Bu esa asarning ijtimoiy-gumanitar soha doirasida ekanligini tasdiqlovchi dalillardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sahsiddin Muhammad ibn Ahmad ibn usmon Zahabiy. Siyaru a'lomi-n-nubalo:25 jildli. Shu'ayb Arnout tahqiqi.-Bayrut: Doru muassasa ar-risala, 1985. J:12.
2. Muhammad ibn Iso Termiziy. Al-ilal as-sog'ir. Ahmad shokir tahqiqi.-Bayrut: Doru ihyai-t-turosil-l-arabiy.
3. <https://www.bukhari.uz>